

TURISTLIK KLASTERLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI

QDU magistranti

Baxtiyorova Durdona

[*baxtiyoro vadurdona2803@mail.ru*](mailto:baxtiyoro vadurdona2803@mail.ru)

[*+998975142809*](tel:+998975142809)

Annotatsiya: Bu tezisdagi klasterlar va ularning iqtisodiy ta'limotdagi o'rni haqida qisqacha ma'lumot berilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Turizm klasterini zamonaviy ko'rinishi, klasterlarni yuritishda infratuzilma omillari, klaster chegaralari, ta'sir etuvchi omillar.

Turizm klasteri zamonaviy turizm industriyasining ancha istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Klaster yaratish yalpi hududiy mahsulotni bir necha barobar oshirish imkonini beradi. Gap shundaki, klaster o'zining ta'rifidan kelib chiqib, turli turizm biznesi subyektlarining birgalikdagi ishini nazarda tutadi, bu esa ularning birgalikdagi faoliyatidan daromadlarni oshirish imkonini beradi. Turizm klasteri - ixtiyoriy asosda birlashgan kompaniyalar faoliyatini o'z ichiga olgan rekreatsion hududdir. Firmalar faoliyati o'zaro bog'liqdir, shuning uchun bir firmada muammolar yuzaga kelganda, vaziyatni hal qilish uchun boshqa firmalar ishga kirishadi, chunki muammolarni yakka holda hal qilish nafaqat klaster yaratish mohiyatiga zid keladi, balki butun klaster daromadini kamaytiradi. Klasterlarni yaratishda infratuzilma omillarini hisobga olish, shuningdek, tabiiy va iqlimiy omillarni baholash kerak. Klasterlarning tashkil etilishi qator muammolarni hal etishi mumkin: infratuzilmani yaxshilash, yalpi hududiy mahsulotda turizmdan tushgan daromad ulushini oshirish hisobiga iqtisodiyotni mustahkamlash, mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash.

Avval klasterlarning joylashuvi va chegaralari to'g'risida qaror qabul qilish, shuningdek markazlarni aniqlashtirish kerak. Bunda markazlar bir nechta bo'lishi

mumkin, ular klaster ichida bir-biri bilan raqobatlashmagani, balki bir-birini to'ldirishi yaxshiroqdir. Klaster chegaralarini aniqlash uchun mintaqani o'rganish, qaysi diqqatga sazovor joylar eng mashhurligini va shuning uchun u yerda markazlarni yaratish foydaliroq ekanligini aniqlash kerak. Klaster chegaralarini aniqlash turizm klasterini yaratishda ham muhim vazifa hisoblanadi. Shuni tushunish kerakki, chegaralarni belgilashda boshqa mintaqalar bilan bog'langanlik va bo'lajak turistlarning o'ziga xos xususiyatlari kabi omillarni hisobga olish kerak.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizm klasterining tashkil etilishi iqtisodiy jihatdan orqada qolgan hududlarning rivojlanishiga turtki beradi, klasterda sarflayotgan mablag'lari evaziga mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirayotgan sayyohlar oqimini jalb qiladi. Ikkinchi afzallik - sarmoyalarni jalb qilish va buning natijasida klasterda infratuzilmani rivojlantirish hisoblanadi. Buning hisobiga qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi. Ishlab chiqarish, fabrika va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati kuchaytiriladi. Investitsiyalar va sayyohlar tomonidan sarflangan mablag'lar hisobidan yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Klaster yondashuvining yangiligi shundaki bu barcha hududiy ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishiga inovatsion yondashuv katta ahamiyat kasb etadi chunki bu ish bilan bandlikni oshirishda, byudjet daromadlarni ko'paytirishda boshqa turli xil yondoshuvlarda namoyon bo'ladi. Turistik klasterlar har qanday mamlakatda turizmning rivojlanishini tahlil qilishdan oldin unga ta'sir qilinadigan omillarni sanab o'tamiz:

- Siyosiy
- Iqtisodiy
- Ijtimoiy-demografik
- Ma'daniy

Hozirgi vaqtda klasterlar mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshlikni ta'minlovchi mexanizmi hamda iqtisodiy o'sish drayverlari hisoblanmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida klasterlar sonining tez ortib borayotgani ham ularning samaradorligi yuqori ekanligidan dalolat.

Jumladan klaster nazariyasining asoschisi Maykl Porterning fikriga ko‘ra, mamlakat raqobatbardoshligini uning alohida firmalari emas, balki turli sohalardagi firmalar uyushmasi - klasterlarning xalqaro raqobatbardoshligi prizmasi orqali ko‘rib chiqish kerak va ushbu klasterlarning ichki resurslardan samarali foydalanish salohiyati muhim ahamiyatga ega.

Klasterlar bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasi

Hozirgi kunda klasterlar dunyodagi yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotining qariyb **50 foizini** qamrab olgan. Masalan, AQShda klasterlar soni – **380 tani** tashkil etgan holda, mamlakatda faoliyat olib borayotgan yirik korxonalarining yarmidan ko‘pini birlashtiradi. Mamlakat **YaIMining 60 foizi** ushbu klasterlarning ulushiga to‘g‘ri keladi. Italiyada sanoatda band bo‘lganlarning **43 foizi 206 ta** klasterda mehnat qiladi va mamlakat eksportining **30 foizdan** ortig‘i ushbu klasterlarning hissasiga to‘g‘ri keladi. Finlyandiyaning makroiqtisodiy siyosatida klasterlarga juda katta e‘tibor berilgan. Jumladan, yog‘ochni qayta ishlash, qog‘oz mahsulotlari, uyali aloqa uskunalari, telefonlar ishlab chiqarish to‘liq klasterlar nazorati ostida va bu tarmoqlar mamlakat eksportida yetakchi o‘rinni egallaydi. Xitoyda 60 dan ortiq maxsus klaster mavjud bo‘lib, ular **30 mingga** yaqin korxonani birlashtiradi. **3,5 million kishi** mehnat qiluvchi mazkur korxonalarda yiliga **200 milliard AQSh dollariga** teng mahsulot ishlab chiqariladi. O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va sanoatlashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan sharoitda klasterlar tizimini shakllantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barcha tarmoqlar va hududlarda klasterlarni puxta o‘ylab shakllantirish ularni mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadigan vositaga aylantirish imkonini beradi

O‘zbekistonda klasterlarning rivojlanish tendensiyasi tahlili natijalari

O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab paxta-to‘qimachilik va meva-sabzavot klasterlari tizimi joriy etila boshlandi. Natijada 2017-2022 yillarda

mamlakatda **506 ta klaster** shakllantirildi. 2022-yilda ular tomonidan **28,7 trillion so‘mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

2018-2022 yillarda ushbu klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) hajmi **32** baravar ortgan. Bu ko‘rsatkich sanoatning qayta ishlash tarmog‘ida **2,5** baravarni tashkil qilgan. Klasterlarga moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 2018-2022 yillarda **7,6** trillion co‘mni tashkil etgan va tahlil davrida bu ko‘rsatkich **5,2 baravar** ortgan. Taqqoslash uchun qayta ishlash sanoati tarmog‘ida bu ko‘rsatkich **3,2 baravarni** tashkil etgan. Klaster korxonalarini tizimida mehnat faoliyatini olib borayotganlar soni 2018-2022 yillarda **2,5 barvarga** ortgan. Klasterlarning jami sanoat mahsulotlari turi bo‘yicha eksportdagi ulushi 2019-yilda **5 foizni** tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda **11,4 foizga** yetgan. Klasterlar tizimida mehnat unumdorligi 2018-2022 yillar oralig‘ida **12,9 baravar** ortgan. Bu ko‘rsatkich sanoatning qayta ishlash tarmog‘ida **6,4** baravarni tashkil qilgan. Demak, klasterlashuvda mehnat unumdorligi tarmoqdagiga qaraganda **2 baravar** yuqoriroq bo‘lgan.

Tahlillar, **mehnat unumdorligi** bilan birga yo‘naltirilgan investitsiyalarning daromadlilik darajasi ham klasterlarda tarmoqdagiga yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2018-2022 yillarda klasterlarga yo‘naltirilgan **investitsiyalarning iqtisodiy qaytimi** (daromadlilik darajasi) **koefitsienti 1 dan -1,4 ga** ortgan. Bu klasterlashtirish loyihalari juda samarali ekanligidan dalolat beradi. Bir qator klasterlarning mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotidagi o‘rnini baholash uchun **Klaster quvvati (Pc)** integral indeksi tavsiya etiladi. Biroq O‘zbekistonda klasterlar shakllanish jarayonida bo‘lganligi sababli **Klaster quvvati (Pc)** integral indeksidan tarmoq kesimida foydalanish mantiqli bo‘ladi.

ADABIYOTLAR.

1. «O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 21-sonli Prezident qarori 12.01.2024 PQ-21

2. Porter M. (2001) *Competition Moscow: Publishing House Williams*. -P. 207
3. Шкежев, Р.Х. (2012) *Стратегическое управление взаимодействием субъектов Интеграционных структур региональной экономики / Р. Х. Шкежев // Региональная Экономика и управление: электронный научный журнал. № 2 (30)*
4. К.Т.Каленов *Turistik klasterler. / Oqiw qollanba./ – NÓKIS: “ILIM NUR”, 2024 jil – 274 b.*
5. Каленов, К. (2021). *АГРАР СОҲАДА СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИНИ ЙУЛГА ҚУЙИШНИНГ ЖАҲОН ТАЖРИБАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Iqtisodiyot va ta'lim, (4), 343-347.*
6. Tursynbaevich, A. R., Tlegenovich, K. K., & Kairatovich, K. Z. (2023). *CHINA URGANISH MARKET AND EXPORT KILINADIGAN VILLAGE HOUSEHOLD PRODUCTS INSURANCE PRODUCTS. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 2(5), 1-7.*
7. Каленов, К. Т. (2014). *ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ НОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ОБЛАСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО СТРАХОВАНИЯ. The Way of Science, 51.*
8. Kalenov, K., & Utemuratova, R. (2024). *Information necessary for the distribution of liability between partners in export cargo logistics services insurance the Republic of Uzbekistan. Modern Science and Research, 3(1).*
9. Tlegenovich, K. K., Istamovich, R. N., & Baxadirovna, U. R. (2024). *Modern Trends and Factors of Financial Development of the Agricultural Sector in the Republic of Karakalpakstan, Taking Into Account Agricultural Insurance. Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777), 2(1), 97-101.*
10. Каленов, К. Т., & Калимбетов, Б. И. (2022). *Экономическое развитие аграрного сектора сложно экологических зон: на примере республики Каракалпакстан. In Экономическое развитие России: точка баланса в мировой экосистеме и инфраструктура будущего (pp. 123-129).*

11. Каленов, К. (2021). Использование мировой практики отключения страховых услуг в аграрной сфере. *Экономика И Образование*, (4), 343-347.
12. Каленов, К. Т. (2021). Тенденции и факторы финансового развития аграрного сектора с учетом агрострахования в республике Каракалпакстан.
13. Kalenov, K. T., Kalbaeva, I. E., & Koblanov, Z. K. (2014). PROSPECTS FOR LIVESTOCK INSURANCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *The Way of Science*, 16.
14. Каленов, К. Т. АЎЫЛ ХОЖАЛЫҒЫ КӘРХАНАЛАРЫНДА ҚАМСЫЗЛАНДЫРЫҰ ХЫЗМЕТЛЕРИН КЛАССИФИКАЦИЯЛАҰ ТИЙКАРЫНДА ЖОЛҒА ҚОЙЫҰ. МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ БЕРДАХА, 184.
15. Адильчаев, Р. Т., Каленов, К. Т., & Узаков, Р. М. (2021). ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ ФИНАНСОВОГО РАЗВИТИЯ АГРАРНОГО СЕКТОРА С УЧЕТОМ АГРОСТРАХОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН. In *Управление в XXI веке-проблемы и перспективы* (pp. 302-310).
16. Каленов, К., & Юлдашева, А. (2024). ТУРИЗМНИ ДОЙИМИЙ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТРАНСПОРТ СОҲАСИНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 3(30), 15-18.
17. Kalenov, K., & Ganieva, E. (2024). Respublikamizda turizm sohasini doyimiy rivojlantirishda transport xizmatini takomillashtirish. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 2(2), 333-337.
18. Kalenov, K., & Utemuratova, R. (2023). QISHLOQ XO ‘JALIGI KORXONALARIDA XATARLARINI O ‘ZARO SUG ‘URTALASH JAMIYATLARI TASHKIL ETISH ORQALI SUG ‘URTALASHNING XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3 Part 2), 100-105.